

## TA'LIM JARAYONI BILAN BOG'LIQ FOBİYALARNI BARTARAF ETISHDA MUAMMOLI TA'LIMNING AHAMIYATI

***Badritdinova Madina Baxromovna***

*NamDPI dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada muammoli ta'lim orqali o'quv faoliyati bilan bog'liq fobiylarni bartaraf etishning psixologik mexanizmlari ochib berilgan. Mamlakatimiz o'quv yurtlarida pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga joriy etishga turlicha yondoshuvlarning mavjudligi, o'qitishga texnologik yondoshuvning o'zbek xalq pedagogikasi g'oyalari bilan uyg'unlashtirib o'quv jarayoniga tatbiq etish, kadrlar tayyorlash sifatini jahon ta'lim standartlariga muvofiqlashtirishda alohida o'rin tutishi, zamonaviy ta'lim texnologiyasida muammoli ta'limning ahamiyati yoritilgan. SHu bilan birga o'quvchilardagi sotsiofobiyaning bartaraf etishda muammoli ta'lim texnologiyalarini tadbiq etilishi ijobiy samara berishi ko'rsatib o'tilgan. Maqola talabalar, pedagoglar, ijtimoiy fobiya, muammoli ta'lim muammolari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

**Kalit so'zlar:** muammo, tafakkur, innovatsiya, metod, muammoli vaziyat, kashfiyot.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ УСТРАНЕНИЯ ФОБИЙ, СВЯЗАННЫХ С УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ, ПУТЕМ ПРОБЛЕМНО- ОРИЕНТИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ

***Бадритдинова Мадина Бахромовна***

*доцент НамДПИ, доктор философии (PhD) по психологии*

**Аннотация:** В статье раскрываются психологические механизмы преодоления фобий, связанных с учебной деятельностью, посредством проблемного обучения. Подчеркивается наличие различных подходов к внедрению педагогических технологий в образовательный процесс в учебных заведениях нашей страны, особая роль технологического подхода к обучению в образовательном процессе в сочетании с идеями узбекской народной педагогики, соответствие качества подготовки кадров мировым образовательным стандартам, значимость проблемного обучения в современных образовательных технологиях. В то же время показано, что внедрение проблемно-ориентированных образовательных технологий может оказать положительный эффект в устранении социальной фобии у учащихся. Статья предназначена для студентов, преподавателей и специалистов, занимающихся проблемами социальной фобии и трудностями в обучении.

**Ключевые слова:** проблема, мышление, инновация, метод, проблемная ситуация, открытие.

## THE IMPORTANCE OF PROBLEM EDUCATION IN ELIMINATING PHOBIAS RELATED TO THE EDUCATIONAL PROCESS

***Badritdinova Madina Bakhromovna***

*Associate Professor of the National Institute of Psychology, Doctor of Philosophy  
(PhD) in Psychology*

**Annotation:** *This article reveals the psychological mechanisms of eliminating phobias related to academic activity through problem education. The existence of different approaches to the introduction of pedagogical technology into the educational process in educational institutions of our country, the special role of the technological approach to teaching in the educational process in combination with the ideas of uzbek folk pedagogy, the importance of problem education in modern educational technology are highlighted. At the same time, it is shown that the introduction of problem education technologies has a positive effect in eliminating sociophobia in students. The article is intended for students, teachers, specialists dealing with social phobia, problematic education.*

**Keywords:** *problem, thinking, innovation, method, problematic situation, discovery.*

**KIRISH**

Hozirgi globallashuv jarayonlari va fan – texnika sohasidagi ilg'or tadqiqotlar ijtimoiy soha vakillarining zimmasiga shaxsning jamiyat talablari bilan uyg'un rivojlanishi va faol bilish motivatsiyasini qaror toptirish bilan bog'liq zaruriy vazifalarni yuklaydi. Bunday hollarda jamiyat ijtimoiy rivojining ilmiy asoslangan istiqbolli rejasini tuzib, uning ustuvor yo'nalishlarini belgilab olish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Pedagogik jarayondagi ta'lim va tarbiya samaradorligini oshirish uchun o'qitish sifatini tubdan yangilash, o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi munosabatini yo'lga qo'yish, o'zaro sog'lom raqobat muhitini qaror toptirish va yangicha yondashuvlarni amaliyotga joriy etishimiz zarurdir.

Bugungi kunda psixologlarni qiynayotgan muammolardan biri bu o'quvchilar guruhlarida shaxslararo munosabatlarni, shaxs xususiyatlarini iloji boricha to'liq va mukammal o'rganib chiqishdir.

Zamonaviy ta'lim tizimi har bir pedagogdan juda katta kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishni, o'qitishning eng ilg'or texnologiyalarini o'zlashtirishni, fanning so'nggi yutuqlaridan xabardor bo'lishni, o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ular bilan ta'lim-tarbiya ishlarini olib borish malakasiga ega bo'lishni taqozo etmoqda. Milliy dasturning ikkinchi bosqichi sifat bosqichi hisoblanib, bunda o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Darhaqiqat, intellektual kuchlarga ega bo'lish professional saviyasining salohiyatini e'tiqod darajasi, ma'naviy boylik ta'lim-tarbiya, asosida amalga oshiriladigan masalalaridandir. Zero bu muhim muammoni hal etish barkamol ma'naviyatli insonlarni tarbiyalashga e'tiborni yanada oshirishni taqozo etadi.

O'quvchilar tomonidan bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirilishi ular tafakkurining tezligi, izchilligi, mazmundorligi, mustaqilligi, chuqurligi va boshqa bir qator xususiyatlariga bog'liqdir. Shuning uchun ham mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida muammoli ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi, ularni rivojlantirish esa ta'lim sifati samaradorligini ta'minlanishining dolzarb muammolaridan biridir.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Qo'rquv holati shaxsda psixik jarayonlarning normal kechishiga kata ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonda sezuvchanlikning o'ta oshib ketishi yoki pasayishi vaziyatning mohiyatini tushunmaslik, idrok etishning yomonlashuvi kabi holatlarni kuzatish mumkin.

A.Kempinskiy qo'rquvni keltirib chiqaruvchi holatlarni 4 guruhga ajratadi: hayot uchun bevosita xavfli ta'sir ko'rsatuvchi omillar, ijtimoiy tahdidlar, faollikni shaxsan tanlash imkoniyatining mavjud emasligi hamda ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatlardagi buzilishlar. Kelib chiqish sabablariga ko'ra qo'rquvni biologik, ijtimoiy, ruhiy va dezintegratsion turlarga bo'lish mumkin [9].

Qo'rquv tafakkur jarayoniga ham ta'sir ko'rsatib, ba'zi insonlarda fikrlashning ravonlashuvi va vaziyatdan tezroq chiqib ketishga intilish bilan namoyon bo'lsa, boshqalarda, aksincha, taffakur mahsuldorligining pasayishi, nutq va harakatlarda mantiqsizlik aks etadi. Juda ko'p holatda irodaviy soha zaiflashib, inson biror qaror qabul qilishga, vaziyatni nazorat qilishga o'zida kuch topa olmay qoladi. Qo'rquv vaqtida ko'pincha nutq buzilib, tovushda titroq paydo bo'ladi. Qo'rquv va xavotirlik diqqat jarayoniga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Odatda, diqqat juda tarqoqlashib, inson o'z diqqat e'tiborini bir yerga to'play olmay qoladi va ba'zan, aksincha diqqatining barqarorligi oshib, aynan bir ob'yektga tomon yo'naltirilganligini ham ko'rish mumkin.

Hozirda xorijlik mutaxassis olimlar bilan bir qatorda respublikamizning bir qator pedagog olimlari Ashirboyev S, Sayidaxmedov I.S, Jo'rayev R.X, Farberman B.L. va boshqalar tomonidan ham samarali ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda [2]. Mamlakatimiz o'quv yurtlarida ham pedagogik texnologiyaga qiziqish ortib unga turlicha qarashlar va tushunchani o'ziga xos talqin qilishlar, shuningdek pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga joriy etishga ham turlicha yondoshuvlar sodir bo'lmoqda.

Zero, o'qitishga texnologik yondoshuvning o'zbek xalq pedagogikasi g'oyalari bilan uyg'unlashtirib o'quv jarayoniga tatbiq etish, kadrlar tayyorlash sifatini jahon ta'lim standartlariga muvofiqlashtirishda alohida o'rin tutishi muqarrardir. Bizga ma'lumki, zamonaviy ta'lim texnologiyasida muammoli ta'lim alohida o'rin tutadi.

J.Piajening ta'kidlashicha, "Ijtimoiy hayot uch narsaning ta'siri - til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi". Bu borada muammoli ta'lim orqali o'zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o'z-o'zidan o'smir tafakkurini yangi imkoniyatlarini yaratadi [4].

N.S.Leytesning fikricha, tevarak-atrof, borliq, jamiyat, tabiat, mikro va makro muhitdagi narsalar hamda hodisalar o'rtasidagi ichki bog'lanishlar, munosabatlar, o'zaro ta'sirlarni aks ettirish, voqelikni ijodiy tarzda qayta o'zgartirish imkoniyati o'smir tafakkurini rivojlanishi uchun asosiy omil bo'lib xizmat qiladi [6].

N.A.Menchinskaya maktab o'quvchilarining aqliy taraqqiyot darajasini aniqlash jarayonida ularning mavjud bilimlarni amaliyotda qo'llash darajasini hamda mantiqiy fikr yuritish holatini belgilashga harakat qiladi [9]. Muallif bu asnoda o'zlashtirish sur'atiga, yaqqollik va mavhumlikka, yaqqol va mavhum tafakkurning o'zaro aloqasiga, analitik-sintetik faoliyat bosqichiga alohida ahamiyat beradi. Bunda tadqiqotchi uchun eng muhim mezon o'quvchilar fikrini xususiydan umumiy mulohazaga almashtirish imkoniyati hisoblanadi. Uning fikricha, aqliy taraqqiyot o'z ichiga o'quvchilarning o'qishga nisbatan munosabati, o'qish motivlari, bilishga qiziqish masalalarini qamrab olishi kerak, deb hisoblaydi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Ushbu maqolada muammoli ta'lim orqali o'quv faoliyati bilan bog'liq fobiyalarni bartaraf etishning psixologik mexanizmlari ochib berilgan.

Mamlakatimiz o'quv yurtlarida pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga joriy etishga turlicha yondoshuvlarning mavjudligi, o'qitishga texnologik yondoshuvning o'zbek xalq pedagogikasi g'oyalari bilan uyg'unlashtirib o'quv jarayoniga tatbiq etish, kadrlar tayyorlash sifatini jahon ta'lim standartlariga muvofiqlashtirishda alohida o'rin tutishi, zamonaviy ta'lim texnologiyasida muammoli ta'limning ahamiyati yoritilgan. SHu bilan birga o'quvchilardagi sotsiofobiyaning bartaraf etishda muammoli ta'lim texnologiyalarini tadbiq etilishi ijobiy samara berishi ko'rsatib o'tilgan.

Maqola talabalar, pedagoglar, ijtimoiy fobiya, muammoli ta'lim muammolari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

### TAHLILLAR VA NATIJALAR

Muammoli ta'lim texnologiyasining zahirida bir-biriga bog'liq bo'lgan muammolar zanjiri yotadi. Muammoli ta'lim metodiga asoslangan ta'lim jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi [3].

- \* Dastlab muammoli vaziyat hosil qilish;
- \* Muammolarni shakllantirish va muammoni yechish uchun umumiy taxlil qilish;
- \* Tahmin qilingan yechimni tekshirish;
- \* Amaliy va nazariy xarakterdagi masalalarda qo'llash, ularni tartibga solish hamda siyosiyashtirish.

Dars jarayonida o'quvchi muammoni yechar ekan, o'zicha muhim bo'lgan "kashfiyot" qiladi. Bu hol o'quvchida o'ziga ishonch hosil qiladi (ya'ni mening kashfiyotim, men topdim, ixtiro qildim).

Mana shu tomoni bilan muammoli ta'lim texnologiyasi boshqa barcha o'qitish texnologiyalaridan ustun turadi. Chunki, bunda o'quvchi izlanish olib borish, taxlil qilish, empirik xulosa chiqarish, boshqa vaziyatga qo'llash, fikr-muloxazalarini taxminan sistemalashtirib isbotlash, kelgusida amaliy faoliyatga qo'llash malakalarini egallab boradi.

Muammoli ta'lim an'anaviy o'qitish metodikasiga tayanadi. O'qituvchi muammoli vaziyatni o'quvchilar oldiga qo'yish bilan bir qatorda, uni yechish uchun izlanish zarurligini, izlanish uslublarini o'quvchilarga o'rgatadi. Muammo yechimini

topish, izlashga o'tish uchun, eng avvalo zaruriy muhit yaratilishi kerak. Muammo aniq bo'lishi, o'quvchilar uni yechimini izlash jarayonida oldingi mavzularda, fanlarda olgan ma'lumotlari, tushunchalari, bilimlaridan foydalana oladigan bo'lishi kerak. O'quvchilar oldiga qo'yilgan muammo o'zining dolzarbligiga ega bo'lishi ham muhim ahamiyatga ega. O'quvchi izlanishni ma'lum bir sistemada, muayyanlikda bo'lgan muammo ustida olib borish kerak. SHunda o'quvchi muammoni taxlil qiladi, qismlarini ajrata oladi va yechish uchun kirishadi. Ta'lim jarayonini loyihalash bevosita muammoli ta'limni qo'llashga va aksincha, muammoli ta'lim ta'limini loyixalashga olib keladi. Muammoni o'qitish texnologik loyixalashtirilgan o'quv jarayonini amalga oshirishning didaktik konstruksiyasi sifatida qo'llaniladi.

E.N.Kabanova-Meller muammoli ta'lim orqali o'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga e'rishish mumkinligini ta'kidlaydi. E.N.Kabanova-Meller metodi bo'yicha o'quvchilarning tafakkurining rivojlanishi 3ta mezon (o'lchov, parametr) bilan aniqlanadi [8]:

1. Ta'lim jarayonida shakllantiriladigan ko'nikma, malaka va aqliy faoliyat usullarida yangi sharoitga ko'chish muammosining mavjudligi (har xil yo'llari, ko'rinishlari, turlari va hokazo).

2. O'quvchilarda tarkib topgan ko'nikma, malaka va aqliy faoliyat usullaridan shaxsning o'z aqliy faoliyatini o'zi bevosita idora qilishga, boshqarishga o'tishi.

3. Tashqi ta'sir natijasida o'quvchilarning bilishga qiziqishi qay darajada ekanligini aniqlash va boshqalar.

Amerikalik olim U.Gordon (1960) o'quvchilarga muammolarni, uning tashkil qiluvchi elementlarini shakllantirishni o'rgatishni, izlanishning bosh maqsadini ajrata bilishni, turli-tuman xarakterdagi masalalar yechimining o'xshashlarini qidirishni o'rgatish muammoli ta'lim jarayoni uchun muhimligini ta'kidlaydi [5]. O'qituvchi muammoni qo'yishni bilibgina qolmay, uning yechimini topish usullarini o'quvchilarga o'rgatishi kerak.

Muammoni yechimini izlashning quyidagi usullari bor [7].

\* Muammoni yechimini to'g'ri izlash (muayyan masalaga o'xshash, masalalar qanday yechiladi);

\* Muammoni yechimini shaxsiy izlash (muayyan masalada berilgan ob'ekt obraziga kirishga xarakat qilish va shu nuqtai-nazardan muloxaza yuritishga urinib ko'rish);

\* Simvolitik (ikki jumla orqali masalaning mohiyatini obrazli aniqlashni berish);

\* Fantastik (bu masalani ertak qahramonlari qanday yechgan bo'lar edilar).

Muammoli vaziyatni bunday usulda yechishga o'rgatish orqali o'quvchilarni sinektik, abstraktsiyalash, fantaziya qilish, o'zgalarni eshitish, oddiydan g'ayrioddiy, g'ayrioddiydan oddiy topish, o'xshatishlardan mohirona foydalanish ko'nikmalari shakllantiriladi.

### XULOSALAR

Adabiyotlar tahlili va o'tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda bolalarning aksariyat qismida sotsiofobiya kuzatilib, bu holat ularning o'z-o'ziga beradigan baholari hamda individual psixologik xususiyatlari bilan ham bog'liq degan fikrga kelish mumkin.

Bu jarayonni o'rganib chiqish orqali biz quyidagi xulosalarga keldik:

- bolaning mustaqilligini cheklab qo'yish o'z-o'ziga bo'lgan ishonch hissining susayishiga olib keladi;

- bolalarda xavotirlanish va qo'rquv, jumladan sotsiofobiya o'z-o'ziga adekvat baho bera olmaslik va shaxsiy nizolar asosida yuzaga keladi;

- ota-onalar tomonidan bolaning faqat xato va kamchiliklariga urg'u berilishi, atrofdagilar tomonidan bolaning ko'p tanqid qilinishi keyinchalik unda sotsiofobiya shakllanishiga zamin yaratadi;

- shaxsda muloqotchanlikning yetarli darajada rivojlanmaganligi ularda sotsiofobiya holatini yuzaga keltiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi;

- faoliyatdagi muvaffaqiyatsizlik va omadsizliklar shaxsda xavotirlanish va qo'rquv holatlarini yuzaga keltiradi;

- shaxsdagi sotsiofobiya holati o'z-o'zini anglashdagi nuqsonlar bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin;

- sotsiofobiya insonning jamoa oldida so'zga chiqa olmaslik, begonalar bilan suhbatlashishdan qo'rqish, odamlardan qochish, o'ziga ishonmaslik, ta'lim

jarayonida o'z qobiliyat va imkoniyatlarini to'la namoyon qila olmaslik ko'rinishlarida namoyon bo'ladi;

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda, muammoli ta'lim orqali nazariy tafakkurga asoslanib, mazmundor umumlashtirishga suyanib, umumlashgan o'quv usulini shakllantirish orqali o'quvchilarning mavhum fikr yuritish darajasini rivojlantirish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, muammoli ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilar o'rtasida fikrlar almashinishini boshqarish, ishonchli dalillar asosida o'z fikrida tura olish, muxolif tomonning fikrini munozara qilish, malakasini rivojlantirish, o'quvchini aktiv fikrlash faoliyatiga asoslash, masalani dolzarblashtirish, o'z fikrini bayon qilishnigina emas, balki boshqalarni ham eshitish mahoratini rivojlantirish, o'quvchilar bildirgan fikrlardan foydali axborotni olish va zurur xulosalar chiqarish va o'quvchilar ixtirochilik, tadqiqotchilik, loyihalovchilik kabi zaruriy sifatlarni shakllantirishdir.

O'quvchilarda tafakkur mustaqilligini rivojlantirish uchun yangi o'quv materiallarini evristik tarzda berilishi ham maqsadga muvofiq. Bu borada V.A.Krutetskiy tomonidan taklif etilgan muammoli evristik metod orqali o'qitishning quyidagi bosqichlariga e'tibor qaratishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz [10]:

1-bosqich; O'qituvchi muammo va uning ta'riflanishini ko'rsatib o'tadi, o'quvchilar esa uni hal qilish uchun mustaqil yo'l-yo'riq qidiradi.

2-bosqich; O'qituvchi muammoni o'quvchilarga mustaqil ravishda ta'riflash vazifasini qo'yadi.

3-bosqich; O'qituvchi o'quvchilarlarga muammoni hal qilishga, uni ta'riflashga, yechish usullarini qidirib topishga yo'llanma beradi.

Bu tavsiyalarga amal qilish jismoniy va aqliy jihatdan yetuk, mustaqil fikrlovchi, barcha xususiyatlariga ko'ra boshqalardan ajralib turuvchi shaxsni tarbiyalash imkonini beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni. T.: 2022.
2. Ishmatov K. Pedagogik texnologiyalarni nazariy asoslari. Ta'lim muammolari, Toshkent.: 1999
3. Бадритдинова, М. Б. (2024). Методологические проблемы устранения фобий в современной психологии. *Science and Education*, 5(11), 311-318.
4. Вахромовна, В. М. (2024). Ta'lim jarayonida qo'rquvni bartaraf etishga innovatsion yondashuv. *TADQIQOTLAR. UZ*, 49(3), 13-19.
5. Бадритдинова, М. Б. (2014). НЕКОТОРЫЕ СОВРЕМЕННЫЕ ВОПРОСЫ ПСИХОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ. *ИНСТИТУТЫ И МЕХАНИЗМЫ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ: МИРОВОЙ ОПЫТ И РОССИЙСКАЯ ПРАКТИКА*, 37.
6. Бадритдинова, М. Б. (2016). ИНТЕНСИВНОСТЬ СТИМУЛА И АНАЛИЗ КОГНИТИВНЫХ ПРОЦЕССОВ. *NovaInfo. Ru*, 3(42), 295-300.
7. Бадритдинова, М. Б. (2016). ПРОГРЕССИВНЫЕ И РЕГРЕССИВНЫЕ ТИПЫ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ. *NovaInfo. Ru*, 2(40), 199-202.
8. Бадритдинова, М. Б. (2017). КОГНИТИВНЫЕ ОЖИДАНИЯ, СВЯЗАННЫЕ С УПОТРЕБЛЕНИЕМ АЛКОГОЛЬНЫХ НАПИТКОВ. *NovaInfo. Ru*, 5(58), 354-358.
9. Бадритдинова, М. Б. (2018). КОГНИТИВНЫЙ СТИЛЬ КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОГО ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ. In *ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩЕГО СПЕЦИАЛИСТА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОСТРАНСТВЕ РОССИИ* (pp. 29-35).
10. Вахромовна, В. М. (2019). KOGNITIV USLUB BILAN BOG'LIQ METAUSLUBLARNING RIVOJLANISHI. *Педагогика ва психологияда инновациялар*, 6.
11. Бадритдинова М., Хусайнов М. (2020). ОПИСАНИЕ МЕТОДОВ ДИАГНОСТИКИ КОГНИТИВНОГО СТИЛЯ УЧАЩИХСЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ. *Теоретическая и прикладная наука*, (2), 643-646.